

## Suv resurslarini boshqarishdagi hamkorlik

Joriy yilning 23-noyabr kuni “Barqaror rivojlanish bo’yicha innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar Klasteri”ga Shvetsariya davlatining ADED-Barqaror rivojlanish assotsiatsiyasining rahbari hamda asoschisi Jan-Mark Varidel hamda “Schoolwater” loyihasining koordinatori Marton Benche Krasznai Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti va Innovatsiya Klasteri bilan hamkorlikni amalga oshirish maqsadida institutga tashrif buyurdilar. Uchrashuvda TIQXMMI xalqaro ishlar bo’yicha prorektori professor A.Saloxiddinov, Markaziy Osiyo Mintaqaviy Ekologik markazining O’zbekistondagi direktori Sh.Umarova, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xalqaro Orolbo’yi innovatsiya markazining melioratsiya va suv xo’jaligi bo’limi mutaxassisi I.Asanov hamda innovatsiya klasteri menejeri M.Reymovlar ishtirok etdilar. Uchrashuvning asosiy maqsadi COVID-19 pandemiya sharoitida Orolbo’yi mintaqasi aholisini suv tejamkor texnologiyalari yordamida toza ichimlik suvi bilan ta’minlash bo’yicha qo’shma loyihalarni amalga oshirish hamda suv bilan bog’liq muammolar to’g’risida jamoatchilikni xabardor qilishdan iborat.



Uchrashuv davomida mehmonlarga TIQXMMI hamda Innovatsiya Klasteri to’g’risida ma’lumotlar, erishilgan yutuqlar va xorijiy hamkor tashkilotlar bilan olib borilayotgan halqaro loyihalar to’g’risida ma’lumotlar berildi. Uchrashuv so’ngida tomonlar kelgusida hamkorlikda qo’shma loyihalarni birgalikda amalga oshirish hamda joriy qilish bo’yicha kelishib oldilar.



TIQXMMI matbuot xizmati